Urganch davlat tibbiyot instituti Kengashining
2026-yil 26-iyundagi
11-sonli bayonnomasidan ko‘chirma

Kengash raisi: t.f.d., prof. R.Y.Ruzibayev
Kengash kotibi: N.F.Axmedova
Qatnashdilar: Kengash a’zolari 45 Jami (51 kishi)

Ta’lim sifati nazorati bo‘limi boshligi R.B. Axmedovning 2025–2026 o‘quv yilida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisoboti

ESHITILDI:

R.B. Axmedov o‘z ma’ruzasida 2025–2026 o‘quv yili davomida Ta’lim sifati nazorati bo‘limi tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqida axborot berdi.Hisobot davrida ta’lim jarayonining sifati, o‘quv mashg‘ulotlarining tashkil etilishi va talabalar bilimini baholash jarayonlari monitoring qilindi. O‘quv rejalari, fan dasturlari, o‘quv-uslubiy hujjatlarning amaldagi talablarga muvofiqligi o‘rganildi.Professor-o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati, mashg‘ulotlarga qatnashish holati, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish samaradorligi tahlil qilindi.

Shuningdek, mustaqil ta’limni tashkil etish, o‘quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta’minlanganlik, amaliyot jarayonlari, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi va ish beruvchilar bilan hamkorlik masalalari o‘rganildi.Monitoring natijalariga ko‘ra, ayrim yo‘nalishlarda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, ichki nazorat samaradorligini oshirish, hujjatlarni yuritish sifatini yaxshilash va ta’lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni keng joriy etish zarurligi ta’kidlandi.

QAROR QILADI:

Ta’lim sifati nazorati bo‘limi boshligi R.B. Axmedovning 2025–2026 o‘quv yilida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

- ta’lim sifati nazorati bo‘limi faoliyati doirasida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilsin va ijrosi nazoratga olinsin.
- o‘quv-uslubiy bo‘lim, fakultet dekanatlari va kafedra mudirlari tomonidan o‘quv rejalari, fan dasturlari hamda o‘quv-uslubiy hujjatlarning amaldagi normativ talablarga muvofiqligi muntazam nazorat qilinsin.
- fakultet dekanlari va kafedra mudirlari tomonidan dars mashg‘ulotlarining sifati, talabalar davomati, mustaqil ta’limning tashkil etilishi hamda talabalar bilimini baholashning xolisligi va shaffofligi yuzasidan ichki nazorat kuchaytirilsin.
- professor-o‘qituvchilar tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari va interfaol ta’lim metodlaridan samarali foydalanish choralari ko‘rilsin.
- axborot-resurs markazi va tegishli tarkibiy bo‘linmalar tomonidan ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlanganlik holati o‘rganilib, mavjud ehtiyojlar yuzasidan takliflar kiritilsin.
- talabalar, bitiruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish, ularning natijalarini tizimli tahlil qilish hamda aniqlangan muammolar

bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilish amaliyoti davom ettirilsin.
- klinik kafedralar va amaliyot uchun mas’ul bo‘linmalar tomonidan talabalarning amaliy ko‘nikmalari, klinik tayyorgarligi hamda bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga qaratilgan ishlar kuchaytirilsin.
-ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi tomonidan belgilangan chora-tadbirlar ijrosi muntazam monitoring qilinsin. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Ta’lim sifati nazorati bo‘limi boshligi R.B. Axmedov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi: t.f.d., prof. **R.Y.Ruzibayev**

Kengash kotibi **N.F.Axmedova**